

Vatan kelajagi-yoshlar qo'lida

TIQXMMI Qarshi filiali huzuridagi akademik litseyda 9-10-sinflar o'rtasida fizika va ingliz tili fanidan "Litsey kubogi II" tanlovi bo'lib o'tdi. Qo'shni tumanlardan ham kelgan o'quvchilar o'zlarining bilimlarini imkon qadar sinab ko'rishdi. Qabul jarayoni tugagandan so'ng, barcha o'quvchilar va o'quvchilar bilan kelgan ota-onalar va o'qituvchilar faollar zaliga yig'ildi. Akademik litsey direktori Yo. Q.Toshmurodov so'zga chiqib barcha o'quvchilarni tanlov shartlari bilan tanishtirdi va barcha o'quvchilarga omad tiladi. Ahamiyatli jihatni shundaki, TIQXMMI Qarshi filiali direktori o'rinosbasari D.Quvvatov va TIQXMMI Beshkent qishloq xo'jalik texnikumi direktori Mardonov Sh. lar ham so'zga chiqib, yoshlarni ruhlantiradigan, ularni keljakka bo'lgan ishonchini yanada ortiradigan ibratli maslahatlarni berdilar. Keyin barcha o'quvchilar nazoratchilar boshchiligida guruhlarga bo'lindi va xonalarga joylashtirildi.



Test jarayonida shaffoflikni ta'minlash maqsadida o'quvchilar bilan kelgan o'qituvchilar orasidan test tekshirish jarayoni uchun hay'at a'zolari saylab olindi. Test yakunlariga ko'ra quyidagi o'quvchilar g'oliblikni qo'lga kiritdilar. 10-sinflar o'rtasida fizika fanidan TIQXMMI Qarshi filiali huzuridagi akademik litsey 1-bosqich o'quvchisi To'yumurodov Bekzod 1-o'rin; Nuriston akademik litseyning I bosqich talabasi Nortoshev Maqsud 2-o'rin; Kasbi tumanidagi 7- maktab o'quvchisi Yunusov Nuriddin 3-o'rin; 9- sinflar ortasida fizika fanidan Kasbi tumanidagi 19-maktab o'quvchisi Jovliyev Ulug'bek 1- o'rin; Kasbi tumanidagi 26-maktab o'quvchisi Aliqulov Dilnur 2- o'rin; Shirkent qishlog'i 24-maktab o'quvchisi Panjiyev Dilbek 3- o'rinni egalladi. Ingliz tili fanidan 10-sinflar o'rtasida TIQXMMI Qarshi filiali huzuridagi akademik litsey 1-bosqich o'quvchisi Niyozov Shoxro'z 1-o'rinni; TIQXMMI Qarshi filiali huzuridagi akademik litsey 1-bosqich o'quvchisi Mahmadmurodov Asilbek 2-o'rin; Kasbi tumani 10- maktab o'quvchisi Boboqulov Fotih 3- o'rin;



9- sinflar o'rtasida ingliz tili fanidan Qovchin qishlog'i 25-maktab o'quvchisi Mamatqulova Joziba 1- o'rin; Qarshi tumani 20-maktab o'quvchisi Salimova Nargiza va Shirkent qishlog'i 24-maktab o'quvchisi Imamqulov Shaxzod 2- o'rinni; Shirkent qishlog'i 24-maktab o'quvchisi Sobirov Asilbek 3-o'rinni egalladi. Bu tanlov orqali har bir o'quvchi qaysidir ma'noda o'zining bilimini sinab, o'ziga kerakli xulosani chiqarib olgan bo'lsa ajab emas. Aslida, oliy maqsadimiz ham shu edi. Bizda esa bu kabi tadbirlar davomli bo'ladi.

TIQXMMI matbuot xizmati